

MASOFAVIY TA'LIM OLISHNI HUQUQIY JIHATDAN TA'MINLASH

Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Davlat boshqaruvi huquqi mutaxsisligi magistranti,

Hozirgi zamон ta'lіm tizimida masofaviy o'qitish ta'lіmning qulay turi sifatida kirib keladi. Masofaviy ta'lіm ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lіm bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'lіmning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal an'anaviy va innavatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi. Masofaviy ta'lіmning tarkibiy qisimlari quydagilar: O'qituvchi, o'quvchi va kommunikatsiya.

Masofaviy ta'lіm vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida mahsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lіm vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lіm jarayoni tashkil etiladi. Masofaviy ta'lіmda ma'lum maqsad asosida ta'lіm sub'ekti va ob'ektining ta'lіm vositalari yordamidagi o'zaro ta'siri amalga oshadi.

Ma'lumot jarayoni o'ziga hos pedagogik tizim elementlarini o'z ichiga oladi, bular: ta'lіm maqsadi, ta'lіm mazmuni, ta'lіm metodlari va vositalari ta'lіmning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, o'quv-moddiy, finans-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslar, marketing kabilalar. Masofaviy ta'lіm tizimi insonparvarlik printsipiga asoslanadi. Ya'ni hech kim kambag'allik, geografik muammolar ijtimoiy himoyalanganlik va boshqa sabablar tufayli bilim olish huquqidан mahrum bo'lmasligi lozim. Masofaviy o'qitishda o'qituvchi talabaga o'quv materialini "Internet" tizimi orqali yuboriladi. Ushbu kurs bo'yicha ta'lіm olishni istagan o'quvchilar veb saytga murojaat qilib, nazariy bilimlarni oladilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar va o'qituvchiga javobni elektron pochta (e-mail) orqali jo'natadilar. O'qituvchi o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqni tekshirib, javoni yana elektron pochta orqali o'quvchiga yuboradi. Zarur bo'lsa kerakli ko'rsatmalar beradi. O'quv jarayonida o'quvchi darslikdagi, elektron kutubhona va elektron darsliklardan, vidiokonferentsiyalardan foydalanadi. Masofada o'qitish bu mustaqil o'qishdir. Mustaqil o'qish davrida o'quvchida mustaqil fikrlash, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatları rivojlanadi.

Masofadan o'qitishda o'quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishini tugatadi va o'qitishni tugatganligi to'g'risida sertifikat oldi.

Masofadan o'qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:

- A) darslik,
- B) audio va vidiodarsliklar,
- V) veb-saytlar,
- G) elektron kutubhonalar,
- D) matnlar,
- Ye) elektron darsliklar.

Albatta foydalanuvchi ihtiyyorida masofadan ta'limga olishda multimediyali kompyuter, modem va telefon orqali mavjud bo'lishi kerak.

XXI asrda masofaviy ta'limga eng istiqbolli insonparvar ta'limga va ta'limga integral shakli sifatida ta'limga tizimiga kirib kelmoqda. XXI asr ta'limga jarayoniga global texnologiyaning kirib kelishi bilan ham harakterlanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti talablari o'z-o'zidan ta'limga jarayonini dunyo standartlari darajasida takomillashtirishni taqozo etadi. Hozirgi kunda masofadan o'qitish dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan va qulay ta'limga sifatida rivojlanmoqda. Masalan, Finlandiya-ning Oulu universitetida, Buyuk Britaniyaning London Metropolitan universitetida, Gollandiyaning Fontis universitetida, Janubiy Koreya respublikasida masofaviy o'qitish texnologiyasi keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda talabalar va boshqa soha mutahassislarining malakasini oshirish sohasida samarali qo'llanilib kelinmoqda.

O'z-o'zidan ma'lumki, dunyoga yuz tutayotgan O'zbekiston uchun ham bu ta'limga uzoq kelajak emas. Shuning uchun ham O'zbekiston o'quv yurtlarida ham ba'zi bir islohotlarni amalga oshirish davr talabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

2. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017. – 102b.

3. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

4. Sh. M. Mirziyoyev 7 fevral 2017 yil kuni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli farmonni